

**Pedagogik muloqotda nutq madaniyati va davlat tili
me'yorlarining o'zaro mutanosibligi**

Toshboboyeva Iroda

Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti filologiya fakulteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Jumaqulova Manija

Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti filologiya fakulteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik muloqot jarayonida nutq madaniyati va davlat tili me'yorlarining o'zaro mutanosibligi tahlil qilinadi. O'qituvchi nutqining aniqligi, ravonligi va adabiy til qoidalariga mosligi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi. Shuningdek, nutq madaniyatini rivojlantirish va davlat tili me'yorlariga amal qilishning pedagogik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik muloqot, nutq madaniyati, davlat tili me'yorlari, adabiy til, o'qituvchi nutqi, ta'lim samaradorligi, nutqiy kompetensiya.

Annotation: This article examines the interrelation between speech culture and the norms of the state language in pedagogical communication. It highlights how the accuracy, fluency, and compliance with literary language standards in a teacher's speech directly

affect the effectiveness of education. The pedagogical importance of developing speech culture and adhering to state language norms is also discussed.

Keywords: Pedagogical communication, speech culture, state language norms, literary language, teacher's speech, educational effectiveness, communicative competence.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь культуры речи и норм государственного языка в процессе педагогического общения. Обосновывается влияние точности, выразительности и соответствия литературным нормам речи учителя на эффективность обучения. Также раскрывается педагогическое значение развития культуры речи и соблюдения норм государственного языка.

Ключевые слова: Педагогическое общение, культура речи, нормы государственного языка, литературный язык, речь учителя, эффективность обучения, речевая компетенция.

Kirish: Bugungi jadal o'zgarishlar davrida ta'lim tizimining sifati nafaqat darsliklar mazmuniga, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning qanday tashkil etilganiga ham bog'liq. Pedagogik muloqot — bu shunchaki ma'lumot yetkazish jarayoni emas, balki jonli muloqot san'atidir. Bu jarayonda o'qituvchining nutqi uning bilimini ko'rsatib beruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Pedagogik muloqotda nutq madaniyatiga rioya qilish va davlat tili me'yorlarini hurmat qilish o'zaro chambarchas bog'liqdir. Chunki o'qituvchi darsda adabiy til qoidalariga amal qilar ekan, u nafaqat fanni o'rgatadi, balki o'quvchilarda ona tiliga bo'lgan hurmatni ham shakllantiradi. Mazkur maqolada o'qituvchi nutqining o'ziga xos xususiyatlari, til me'yorlarining pedagogik muloqotdagi o'rni va ularning o'zaro mutanosibliigi masalalari tahlil qilinadi.

Pedagogik muloqotda o'qituvchining nutqi shunchaki muloqot vositasi emas, balki ta'lim sifatini belgilovchi asosiy quroldir. Birinchi navbatda, pedagogik nutq aniq va mantiqiy bo'lishi shart. Agar o'qituvchi fikrini chalkashtirib, mantiqsiz gapirsa, talaba dars mazmunini tushunmaydi. Shuning uchun har bir so'z o'z o'rnida ishlatilishi va mavzu bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ravon o'tishi kerak. Ikkinchi muhim talab — bu nutqning soddaligi va tushunarlilikidir. O'qituvchi o'ta murakkab ilmiy terminlarni ko'p ishlatib, bu auditoriya bilan muloqotni qiyinlashtirishi mumkin. Yaxshi pedagog murakkab narsalarni oddiy tilda tushuntira oladigan insondir. Shu bilan birga, nutq o'quvchilarning yoshiga va bilim darajasiga mos bo'lishi lozim. Uchinchi va eng asosiy talablardan biri — nutqiy odob va etikaga rioya qilish. Pedagogik muloqotda baland ovozda baqirish yoki o'quvchi shaxsini kamsituvchi so'zlarni ishlatish mutlaqo mumkin emas. Aksincha, muloyimlik, ochiq chehra va har bir talabaga hurmat bilan murojaat qilish darsda sog'lom muhitni yaratadi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining nutqi nafaqat aqlli, balki madaniyatli va samimiy bo'lishi o'quvchi qalbining kalitidir. Bundan tashqari, pedagogik nutqning ta'sirchanligini oshiradigan yana bir muhim jihat — bu uning texnik mahorati, ya'ni nutqning ohangi va sur'atidir. O'qituvchi dars davomida bir xil (monoton) ohangda gapirsa, talabalar tezda zerikib qoladi va diqqati tarqaladi. Shuning uchun pedagog kerakli o'rinlarda ovozini biroz balandlatib yoki pasaytirib, muhim joylarda to'xtamlar (pauzalar) qilib gapirishi lozim. Bu usul o'quvchilarning e'tiborini darsning eng asosiy qismlariga qaratishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchining nutqiy madaniyati uning tashqi harakatlari (noverbal muloqot) bilan ham uyg'un bo'lishi kerak. Gapirayotganimizda qo'llarimizning harakati, yuz ifodamiz (mimika) va ko'z bilan muloqot o'rnatishimiz aytilayotgan so'zning ta'sirini ikki barobar kuchaytiradi. Masalan, o'qituvchi talaba bilan gaplashayotganda uning ko'ziga qarab, samimiy gapirishi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Oxirgi navbatda, pedagogik nutq savodli bo'lishi shart. O'qituvchi nafaqat gapirganda, balki doskaga yozayotganda ham imlo qoidalariga qat'iy amal qilishi kerak. Chunki o'quvchilar o'qituvchidan nafaqat fan bo'yicha bilim, balki so'zlarni to'g'ri yozish

va talaffuz qilishni ham o'rganadilar. Shunday qilib, pedagogik nutq o'zida ham ichki madaniyatni, ham tashqi mahoratni mujassam etishi kerak.

Davlat tili me'yorlari — darsning huquqiy va ma'naviy asosi. Pedagogik muloqotda nutq madaniyatining poydevori bu — davlat tili me'yorlariga amal qilishdir. Bizning mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili maqomiga ega, shuning uchun har bir pedagog dars jarayonida adabiy til qoidalariga qat'iy rioya qilishi shart. Bu nafaqat qonuniy majburiyat, balki o'qituvchining o'z millatiga va kasbiga bo'lgan hurmatini ko'rsatadi. Dars davomida imlo va talaffuz qoidalariga (orfografiya va orfoepiya) amal qilish juda muhim. O'qituvchi so'zlarni buzib gapirishi yoki doskada xato yozishi o'qituvchilar ko'z o'ngida uning nufuzini tushirib yuboradi. Masalan, "kelayotgan" so'zini "kevtotgan" deb shevada aytish pedagogik etika nuqtai nazaridan noto'g'ri hisoblanadi. Pedagogning nutqi talaba uchun har doim namunaviy o'rnak bo'lishi, adabiy tilning barcha go'zalliklarini o'zida aks ettirishi lozim.

Yana bir e'tibor berish kerak bo'lgan jihat — darsda sheva elementlari va chet tilidan kirib kelgan keraksiz so'zlarni ishlatmaslikdir. Ko'pincha kundalik hayotda ishlatiladigan jargonlar yoki boshqa tillardagi so'zlarning nutqqa aralashib qolishi pedagogik muloqotning sifatini pasaytiradi. O'qituvchi o'z faniga doir terminlarni tushuntirganda ham, ularning o'zbek tilidagi muqobillarini birinchi bo'lib qo'llashi darsning milliy ruhini saqlab qoladi. Davlat tili me'yorlari — bu pedagogik nutqning tartib-qoidasidir. Agar o'qituvchi o'z nutqini davlat tili me'yorlari asosida qurolsa, talabalarning ham tilga bo'lgan mehri va savodxonligi osha boshlaydi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida davlat tili qoidalariga rioya qilish har bir pedagogning birinchi galdagi vazifasidir.

Nutq madaniyati va til me'yorlarining mutanosibliigi. Nutq madaniyati va davlat tili me'yorlari bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Agar biz til me'yorlarini binoning poydevori deb tasavvur qilsak, nutq madaniyati o'sha binoning tashqi ko'rinishi va go'zalligidir. Pedagogik muloqotda bu ikki jihatning uyg'un bo'lishi o'qituvchi faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Ya'ni, o'qituvchi tildagi qoidalarni mukammal bilishi (me'yor) va ulardan vaziyatga qarab mahorat bilan foydalana olishi (madaniyat)

lozim. Bu mutanosiblik, avvalo, o'qituvchining so'z boyligida namoyon bo'ladi. Adabiy til me'yorlarini yaxshi bilgan pedagog bir xil so'zlarni qaytaravermasdan, ularning sinonimlaridan unumli foydalanadi. Masalan, biror fikrni tasdiqlashda faqat "to'g'ri" demasdan, o'rniga "haqiqatan ham", "shubhasiz", "aynan shunday" kabi iboralarni ishlatishi nutqning jozibasini oshiradi. Bu esa o'quvchilarning lug'at boyligi oshishiga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, nutqning musiqiyliigi va ohangi ham ushbu uyg'unlikning muhim qismidir. Davlat tili me'yorlariga ko'ra har bir so'zning o'z urg'usi va talaffuz tartibi bor. Nutq madaniyati esa o'sha so'zlarni his-tuyg'u bilan, o'rinli pauzalar orqali yetkazib berishni talab qiladi. O'qituvchi quruq va rasmiy gapirmasdan, tildagi imkoniyatlardan foydalanib, o'quvchini darsga qiziqitira olsa, demak, u nutq madaniyati va til me'yorlarini o'zaro muvofiqlashtira olgan bo'ladi. Til me'yorlariga rioya qilmagan holda yuksak nutq madaniyatiga erishib bo'lmaydi. Pedagog dars davomida ham savodli, ham jozibali gapirishi orqali talabalar uchun haqiqiy ma'naviy ozuqa manbaiga aylanadi. Bu ikki tushuncha birlashgan joyda pedagogik muloqot o'zining oliy maqsadiga — sifatli ta'lim va tarbiya berishga erishadi.

Pedagogik muloqotdagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Har qanday sohada bo'lgani kabi, pedagogik muloqotda ham ma'lum bir kamchiliklar uchrab turadi. Bu nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish ustida ishlash bo'lajak pedagoglar uchun juda muhimdir. Bugungi kunda eng ko'p uchraydigan kamchiliklardan biri — bu nutqiy kambag'allik va "parazit" so'zlarning ishlatilishidir. O'qituvchi gap orasida "xo'sh", "haligi", "anaqa", "nima deydi" kabi so'zlarni ko'p qo'llashi uning nutqini zerikarli qiladi va tinglovchining diqqatini chalg'itadi. Yana bir jiddiy nuqson — bu nutqdagi mantiqiy uzilishlar va talaffuzdagi xatolar. Ayrim hollarda o'qituvchi bitta fikrni oxiriga yetkazmasdan boshqasiga o'tib ketishi natijasida talabalar mavzuni tushunishga qiynaladilar. Shuningdek, so'zlarni adabiy tilda emas, balki shevada aytish ("boraman" o'rniga "boraman-da", "aytasiz" o'rniga "aytas") pedagogning nufuziga putur yetkazadi. Bu

kabi xatolar o'quvchilarda ona tiliga nisbatan noto'g'ri ko'nikma shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu nuqsonlarni bartaraf etish uchun pedagog quyidagilar ustida ishlashi lozim:

Muntazam mutolaa: Badiiy asarlar va ilmiy adabiyotlarni ko'p o'qish so'z boyligini oshiradi va parazit so'zlardan qutulishga yordam beradi.

O'z nutqini eshitish: O'qituvchi o'z darsini yoki nutqini diktofonga yozib olib, keyin uni tahlil qilishi o'z xatolarini ko'rishiga yordam beradi.

Lug'atlar bilan ishlash: Shubhali so'zlar yuzaga kelganda, doim imlo va izohli lug'atlarga murojaat qilishni odat qilish kerak.

Xulosa: Pedagogik muloqotda nutq madaniyati va davlat tili me'yorlarining mutanosibligi shunchaki nazariy talab emas, balki zamonaviy ta'limning eng muhim shartlaridan biridir. O'qituvchi o'z nutqi orqali nafaqat fanga doir bilimlarni, balki millatning madaniyati va tiliga bo'lgan munosabatni ham o'quvchilarga yetkazadi. Tadqiqotimiz davomida ko'rib chiqqanimizdek, pedagogning nutqi qanchalik adabiy til qoidalariga mos va mantiqan aniq bo'lsa, ta'lim samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

O'qituvchi — dars jarayonida o'quvchi uchun tirik namuna, tilning jonli sohibidir. Agar pedagog o'z nutqida davlat tili me'yorlarini buzsa yoki sheva elementlariga yo'l qo'ysa, bu holat yosh avlodning savodxonligi va dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, har bir pedagog o'z ustida muntazam ishlashi, so'z boyligini oshirishi va "parazit" so'zlardan voz kechishi davr talabidir. Nutq madaniyati yuqori bo'lgan o'qituvchi auditoriyani o'ziga ergashtira oladi va yoshlarda ona tiliga bo'lgan faxr tuyg'usini uyg'ota oladi.

Maqolamiz yakunida ta'lim muassasalarida pedagoglarning nutqiy mahoratini oshirish bo'yicha amaliy seminarlar va treninglarni ko'paytirish zarurligini ta'kidlamoqchimiz. Zero, til — millatning ruhi, pedagogning nutqi esa o'sha ruhni kelajak

avlodga sof va jozibali holda yetkazib beruvchi ko‘prikdir. Nutq madaniyati va davlat tili me‘yorlarining uyg‘unligi ta‘minlangan joyda haqiqiy ma‘rifat va sifatli ta‘lim yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqudurov, O. Pedagogik mahorat va nutq madaniyati. – Toshkent: "Istiqlol", 2011.
2. Begmatov, E. O‘zbek nutqi madaniyati asoslari. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2008.
3. Inomxo‘jayev, S. Nutq madaniyati va natijali muloqot. – Toshkent: "Akademiya", 2014.
4. Qudratov, T. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: "O‘qituvchi", 1993.